ODAM SAVDOSI VA MAJBURIY MEHNATGA QARSHI KURASHISHNING XALQARO VA MILLIY QONUNCHILIKDAGI TIZIMI VA AHAMIYATI

Tursunpulatov Xursandbek Xusniddin o'g'li
Toshkent tumani Kensoy MFY Kensoy ko'cha 15-uy
https://doi.org/10.5281/zenodo.23856568

Annotatsiya

Mazkur maqolada odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tarixi, mazmuni va xalqaro hamda milliy qonunchilikdagi ahamiyati,shu sohaga oid qonun,hujjatlar hamda konvensiyalar va fuqorolarning davlat tomonidan shu holatga qarshi qanday munosabatdaligi haqida fikr boradi. Binobarin, xalqaro miqyosdagi "Polerma"protokolini qaqbul qilinishi va tizimi haqida so'z boradi. "Polerema"protokoli[1] va odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish haqidagi qonunlar-u ularga mas'ul organlarni O'zbekiston Respublikasidagi tizimi va faoliyati haqida birma-bir to'xtalib o'tamiz. Hozirgi kunda shu holat bo'yicha xalqaro va milliy qonunchilikda qanday islohotlar olib borilayotgani haqida gapiramiz.

Kalit so'zlar: Odam savsosi; majburiy mehnat; polerma protokoli; jinsiy ekspluatatsiya; mehr operatsiyasi; UNODC; jinoyat kodeksi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019-yil 30-iyul kundagi "Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar"to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Shu xususida 30-iyul "Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish" kuni sifatida e'tirof etilmoqda. Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish huquqshunoslik fani va davlatlar tizimida asosiy o'rinda turadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, yurisprudensiya yo'nalishida odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish doimo dolzarb mavzu sifatida o'rganiladi va unga iloji boricha yechim qilishga harakat qilinadi. Hozirga qadar huquqshunoslikda shu mavzuda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan, o'ndan ortiq dissertatsiyalar himoya qilindi va o'quv qo'llanmalar va monografiyalar nashr etildi. So'zlarimizning dalili sifatida muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashishga qaratilgan "Mehr" operatsiyasi[2] nomi bilan Suriya va Afg'oniston davlatlariga aldab olib ketilgan fuqarolarimizni vatanimizga qaytarilgani haqida fikr yuritamiz.

[1] Polerma protokoli – BMT "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikga qarshi konvensiya"ga qo'shimcha protokol
[2] "Mehr operatsiyasi O'zbekiston Respubliokasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilgan ish

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Asosiy qism

Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, Mustaqillik yillarida huquqshunos va tilshunos olimlar tomonidan odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi: o‘ndan ortiq dissertatsiyalar himoya qilindi, ko‘plab o‘quv qo‘llanma va monografiyalar nashr etildi.

Odam savdosining tarixan kelib chiqishiga to‘xtalishdan avval ushbu xalqaro darajadagi tushunchasining normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan ta’rifiga to‘xtalib o‘tsak. Tarixiy hujjatlarga nazar solar ekanmiz odam savdosi eng qadimgi davrlardan beri mavjud bo‘lib kelgan hodisa hisoblanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, bu illat ilk sivilizatsiyalar paytida, ya’ni miloddan avvalgi III–IV ming yilliklarda shakllangan va jamiyatning bir qismi sifatida qaralgan. Jumladan, qadimgi Mesopotamiya qonunlar to‘plami – Hammurapi qonunlarida ham qullik va odamni mulk sifatida ishlatish normal holat sifatida tilga olingani keltirib o‘tilgan. Hozirgi kunda odam savdosidan farqli ravishda qadimgi davrlarda odam savdosi, asosan, qullik tarzida namoyon bo‘lgan.

Odam savdosining zamonaviy shakllariga o‘tsak. Hozirgi kunda dunyoda odam savdosining quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin, bular:

— jinsiy eksplutatsiya obyekti sifatida ayollar savdosi;

— majburiy mehnat obyekti sifatida odam savdosi;

— insonning tabiiy organlarni ajratib olish maqsadida odam savdosi (transplantatsiya);

— jinsiy eksplutatsiya obyekti sifatida bolalar savdosi.

San-Fransiskoning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasi olimlarining ta’kidlashlaricha jinoyatning quyidagi uchta turi eng keng tarqalganlaridir:

— jinsiy savdo (jinsiy ekspluatatsiya);

— majburiy mehnat;

— qarzdorlik qulligi.

shulardan biri jinsiy ekspluatsiya haqida qisqacha ma’lumot yozishimiz mumkin:Jinsiy ekspluatatsiya, jumladan, bolalarni jinsiy aloqa uchun sotish — odam savdosining **79** foizini tashkil qiladi va bunday jinsiy ekspluatatsiya haqida gap ketganda, qurbonlar asosan ayollardir. \

Odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari haqida Fikr yuritadigan bo’lsak,

- **Xalqaro hujjatlar**: Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiya 1949-yil.
- “Qullik va qul savdosini, qullikka o‘xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to‘g‘risida”gi qo‘shimcha Konvensiya 1956-yil.
- “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g’risida”gi BMT konvensiyasi. Nyu-Yorkda 2000-yil.. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 30-avgustdagi qarori bilan ratifikatsiya qilingan)
- Yuqoridagi Konvensiyaga to‘ldiruvchi sifatida “Odam savdosining, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda va uning uchun jazolash to‘g’risda”gi Protokol 2008-yil. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2008-yil 27-iyundagi qarori bilan ratifikatsiya qilingan)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyasida odam savdosiga taalluqli asosiy tushunchalar keltirilgan. Unga ko'ra:

"Odam savdosi - kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish"ga aytiladi.

Milliy normativ-huquqiy asosga keladigan bo'lsam:

• "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2008-yil. Ushbu qonun 2020-yil 17-avgust kuni Oliy Majlis va Vazirlar mahkamasi tomonidan tahrirlab, yanada takomillashtirildi.

Odam savdosi holati: xalqaro va O'zbekistondagi statistik tahlili quyidagi grafik asosida shakllantiramiz. BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har yili taxminan **2 million 700 ming** kishi odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, ushbu jinoyatchilik natijasida olinayotgan yillik daromad miqdori **7 milliard** AQSH dollaridan oshib ketgan.



Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar jinslar kesimida

Jinsiy ekpluatatsiyaning **98** foizi ayollarni tashkil etsa, shularning ichida voyaga yetmagan qizlar ulushi esa kattalarga qaraganda deyarli **4** baravar ko'p jinsiy aloqa uchun sotiladi. Ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston fuqorolari bo'yicha 2021-2024-yillarda odam savdosiga qarshi kurashish haqida reytingni ko'rishimiz mumkin.

2021-yilda hukumat tomonidan aniqlangan jabrdiydalar soni 175 nafarga teng bo'lgan. Ularning 120 nafarini jinsiy ekspluatatsiya, 33 nafarini majburiy mehnat hamda 22 nafarini aniqlanmagan ekspluatatsiyalar tashkil etadi.

2022-yilda esa aniqlangan jabrdiydalar soni kamayib,93 nafarni tashkil etadi. Ulardan 81 nafari jinsiy ekspluatatsiya bo'lsa, majburiy mehnat deb qayd etilgan.

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, 186 nafar jabrdiyda aniqlangan bo'lib, 175 nafari ayol va qizlar, 11 nafari erkaklarni tashkil etadi. Ammo, 126 nafari odam savdosi va majburiy mehnat bilan ayblanib, tegishli organlar tomonidan jazo choralari qo'llangan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Jabrdiyda fuqorolar O'zbekiston hududida borligi barchamizga sir emas.- Turkiya,Rossiya, BAA va boshqa davlatlar tilga olingan.· Huquqni muhofaza qilish va jabrdiydalarni aniqlashda O'zbekistonda so'nggi yillarda kuchaygan: treninglar, tashviqotlar,xalqaro hamkorlik olib borilmoqda.



• 2024 yil boshida O'zbekiston 126 nafar shaxs odam savdosi bo'yicha ayblanib hukm qilingan; ayblanayotganlar orasida 111 ayol, 15 erkak. Jabrdiydalarning 151 nafarini ayollar, 24 nafarini 3 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar tashkil etadi. Vaziyatni yoritgan bir manba: Markaziy Osiyo hududida odam savdosi kamaymayapti, ayollar va qizlar jabrdiydalarning ko'pchiligini tashkil etadi. E'tibor berish lozim bo'lgan jihatlar· Ma'lumotlar "aniqlangan jabrdiydalar" bo'yicha bo'lib, haqiqiy holatlar bundan ancha ko'p bo'lishi mumkin - ya'ni yashirilgan aniqlanmagan holatlar ko'rinmaydi.· Ayollar va qizlar jabrdiydalar orasida katta qismini tashkil qiladi. - Masalan, 2022 yilda aniqlangan 81 jabrdiyda 80 nafar ayol yoki qiz.· Majburan mehnatga uchragan jabrdiydalar, asosan, erkaklar holati sifatida ko'rsatilgan (2022 yilda).Endi UNODC ma'lumotlariga to'xtalsak: Jinsiy ekspluatsiyaga uchragan ayollar va qizlar dunyo bo'yicha 63%ni tashkil etadi. Undan 43%i ayollar deyilsa, 20%i qizlarni tashkil etadi. Endi majburiy mehnatga erkaklar va o'g'il bolalar 37%ni tashkil etadi.

• 1. Taqqoslovchi diagramma - UNODC tomonidan aniqlangan ma'lumotlar 2022-yil uchun 69,627 nafarni tashkil etadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

• 2. Mintaqaviy ulush – UNODC press va hisobotlarida 2022-yilda aniqlangan jabrdiydalarning 26% i Sub-Saharan Afrikadan kelib chiqqani qayd etilgan.

Endi odam savdosiga qarshi kurashuvchi organlar va mavjud javobgarlikka to‘xtaladigan bo‘lsak Odam savdosiga qarshi kurashishga doir faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

- Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha milliy va hududiy komissiyalar;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi.
- Odam savdosi bilan bog'liq bo‘lgan jinoyatlarning javobgarligi masalasini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining bir qator moddalarida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:
- 131-modda. Inson a’zolarining va (yoki) to‘qimalarining savdosi;
- 135-modda. Odam savdosi;
- 137-modda. Odam o‘g‘irlash;
- 138-modda. Zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish;

Endi Polerma protokoliga kirishdan oldin bu o‘zi nima degan savolga javob bersam. **Palermo protokoli** – bu BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikga qarshi konvensiyasi"ga qo‘shimcha protokol bo‘lib, rasmiy nomi "Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bartaraf etish va jazolash to‘g'risidagi protokol"dir.

Bu xalqaro hujjat odam savdosi bilan kurashish, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish va davlatlararo hamkorlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Protokol butun dunyo bo‘ylab odam savdosiga qarshi kurashning asosiy huquqiy bazasi hisoblanadi.

Protokol odam savdosini global muammo sifatida tan olib, unga qarshi samarali kurashish uchun yagona xalqaro standartlarni belgilaydi.

Polerma protokoli haqida ta’rifni aniqladik, endi shu protokolning qabul qilinishi va kuchga kirishi haqida gapiradigan bo‘lsak,

15-noyabr 2000-yil

Palermo protokoli Italiyaning Palermo shahrida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi. Konferensiyada 148 davlat ishtirok etdi va protokol odam savdosiga qarshi kurashishning birinchi global xalqaro huquqiy vositasi sifatida taqdim etildi.

25-dekabr 2003-yil

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Protokol xalqaro huquqda rasmiy kuchga kirdi. Bu 40-davlat tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyin amalga oshdi. Shu kundan boshlab protokol ishtirokchi davlatlar uchun majburiy xarakterga ega bo‘ldi.

8-iyul 2008-yil

O‘zbekiston Respublikasi Palermo protokolini rasmiy ratifikatsiya qildi. Bu qaror O‘zbekiston Oliy Majlisi Senatining 159-sonli qarori bilan tasdiqlandi va mamlakatimizning odam savdosiga qarshi xalqaro kurashga faol qo‘shilishini anglatdi.

Polerma protokoli o‘ziga quyidagicha maqsad qo‘ygan. Bular:

Oldini olish: Odam savdosining oldini olish va bu jinoyatning barcha shakllariga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish

Himoya qilish: Jabrlanuvchilarning huquqlarini to‘liq himoya qilish, ularga huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatish

Hamkorlik: Davlatlar o‘rtasida samarali hamkorlikni o‘rnatish, ma'lumot almashish va qonunchilikni uyg'unlashtirish

Sozlarimizning dalili sifatida Polerma protokolining 3-moddasini misol qilishimiz mumkin. Ushbu moddada odam savdosi

quyidagi **uchta asosiy elementni** o‘z ichiga oladi: Bular:

Harakat bu o‘z o‘rnida quyidagi turlarga bo‘linadi:

Yo‘lash Boshqa joyga ko‘chirish
Tashish Yashirish
Qabul qilish

Vosita quyidagicha turlarga bo‘linad

1. Zo‘ravonlik qo‘llash yoki uning tahdidi
2. Aldash
3. Majburlash
4. O‘g'irlash
5. Ahvolidan foydalanish

- **Maqsad ham quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi.**
- Ekspluatatsiya qilish
- Jinsiy ekspluatatsiya
- Majburiy mehnat
- Qullik

Ekspluatatsiyaning asosiy shakllari haqida fikr yuritsak.

Jinsiy ekspluatatsiya: Fohishalikka majburlash, pornografiya sanoatida majburiy ishlatish va boshqa jinsiy xarakterli ekspluatatsiya shakllari.

Majburiy mehnat: Qishloq xo‘jaligida, qurilishda, ishlab chiqarishda va xizmat ko‘rsatish sohasida zo‘ravonlik yoki tahdid ostida ishlashga majburlash

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Qullik va qullikka o‘xshash holat: Shaxsning mulk sifatida ko‘rilishi, to‘liq nazorat ostida bo‘lishi va erkinligidan mahrum etilishi.

Organlar savdosi: Zo‘ravonlik yoki aldash yo‘li bilan organlarni olib qo‘yish maqsadida odam savdosi.

Bolalar ekspluatatsiyasi: 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarni har qanday maqsadda ekspluatatsiya qilish, jumladan, tilanchilik va noqonuniy faoliyatga jalb etishdir.

Navbat o‘rnida aytish joizki, polerma protokolini milliy qonunchiligimizdagi tizimi haqida fikr yuritsak.

2008-yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi Senatining 159-sonli qarori bilan Palermo protokoli ratifikatsiya qilindi

2008-yilda jinoyat kodeksiga "Odam savdosi" to‘g'risida alohida modda kiritildi va 5 yildan 20 yilgacha qamoq jazosi belgilandi. Bu esa 135-modda deb belgilandi.

2012-yilda Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha birinchi milliy harakat rejasi tasdiqlandi.

2017-yilda Vazirlar Mahkamasi huzurida odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha komissiya tashkil etildi

2019-2023-yillarga mo‘ljallangan "Odam savdosiga qarshi kurashish strategiyasi" qabul qilindi.

2020-2023yillarga Jabrlanuvchilar uchun reabilitatsiya markazlari ochildi, xalqaro hamkorlik kengaytirildi va xodimlar malakasini oshirish dasturlari joriy etildi

2008-yil 17-aprel

Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g'risida"gi Qonun qabul qilinib, davlat organlarining vakolatlari, jabrlanuvchilarni himoya qilish mexanizmlari va xalqaro hamkorlik asoslari belgilandi.

Ma'muriy javobgarlik kodeksi

Odam savdosi bilan bog'liq yengil huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jazo choralari belgilangan, jumladan jarima va ma'muriy hibsga olish.

Vazirlar Mahkamasi qarorlari

Bir qator qarorlar orqali milliy harakat rejalari, koordinatsiya mexanizmlari va dasturlar tasdiqlandi.

Endi shu Polerma protokolini bugungi kundagi ahamiyati qandayligiga to‘xtalsak.

Xalqaro hamkorlik asosi

Protokol davlatlar o‘rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi, ma'lumot almashish, jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish va qonunchilikni uyg'unlashtirish mexanizmlarini yaratadi.

Inson huquqlarini himoya qilish

Palermo protokoli inson qadr-qimmatini, erkinligini va tenga huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlarini belgilaydi. U jabrlanuvchilarni faqat jinoyat guvohlari sifatida emas, balki huquqlari tiklanishi kerak bo‘lgan insonlar sifatida ko‘radi

Doimiy rivojlanish

Protokol statik hujjat emas – u doimo yangi vaziyatlarga moslashib, zamonaviy qullik shakllariga qarshi kurashish uchun asos yaratadi. Raqamli texnologiyalar orqali odam savdosi, onlayn ekspluatatsiya kabi yangi xavflarga javob berish uchun protokol doimiy yangilanmoqda.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Endi prezidentimiz tomonidan umumiy hisobda 435 nafar fuqorolarimiz Suriya Afg'oniston hamda boshqa davlatlardan vatanimizga olib kelingan. Birinchi bo'lib. 2019 yilda tashkil etilgan bo'lib, 156 nafar vatandoshlarimiz yurtimizga qaytarilgan. Hamda shu xususida "Mehr" nomli hujjatli kinofilm ishlangan. Ushbu film prezidentimiz tomonidan topshiriq berilib, bosh rejissiyori Aziz Qarshiyev hisoblanadi. Hamda 2021-yili "Mehr 5" operatsiyasida 93 nafar yurtdoshlarimiz Suriyadagi "Alhol"lageridan O'zbekistonga qaytarilgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, odam savdosiga majburiy mehnatga qarshi kurashishni o'rganish yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabalari va davlat organlari xodimlari uchun juda muhim hisoblanadi. Negaki, Bu sohada dunyo bo'yicha ko'plab insonlar aziyat chekmoqda. Afsuslar bo'lsinki, ba'zi bir insonlarni or-nomus ustunlik qilib tegishli organlarga habar bermaydilar. Shu sababli Kundan-kunga jabrdiydalar soni ko'paymoqda. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ko'plab ishlar olib borilishi sababli shu reyting pasaymoqda. Mening fikrimcha, shu mavzuda maktab va boshqa tashkilotlarda yanada targ'ibot ishlarini olib borib, maktab o'quvchilari va talabalarga tegishli organlar tomonidan tadbirlar va treninglar o'tkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BMT, "Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bartaraf etish va jazolash to'g'risidagi protokol" (2000)
2. UNODC, "Palermo protokoli bo'yicha global hisobot" (2020-2022
3. Yevropa Kengashi, "Odam savdosiga qarshi kurash konvensiyasi" (2005)
4. ILO, "Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya" № 29 va № 105
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 135-modda
6. "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2008-yil 17-aprel, 3RP-154-son
7. O'zbekiston Oliy Majlisi Senatining 159-sonli qarori (2008-yil 8-iyul)
8. Vazirlar Mahkamasi qarori "Odam savdosiga qarshi kurashish strategiyasi" (2019-2023)
9. Gallagher, "The International Law of Human Trafficking" (2010)
10. J. Goodey, "Human Trafficking: Sketchy Data and Policy Responses" (2008)
11. M. Chuang, "Beyond a Snapshot: Preventing Human Trafficking in the Global Economy" (2006)
12. www.unodc.org – BMT rasmiy sayti
13. www.lex.uz – O'zbekiston qonunchilik bazasi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.